

---

“Qorakaltak” mahallasida buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda

Qo’shtepa tumanidagi “Qorakaltak” mahallasida ham barcha joylarda bo’lgani kabi keng ko’lamli buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, elektr ta’minotini yaxshilash maqsadida mahallaning o’z mablag’lari hisobidan 28 ta yangi temir-beton ustunlar olinib, Navbahor, Shaftolibog’ hamda Diydor ko’chalariga o’rnatildi.

Shuningdek mahalladagi Sokin, Navbahor va Shaftolibog’ ko’chalarining jami bir kilometrga yaqin qismi tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shag’allashtirildi.

Amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar eng avvalo, chekka-chekka hududlarda yashayotgan aholining turmush farovonligini oshirishga, qolaversa, ularning hukumatimizga, ertangi kunga bo’lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2025-01-31 12:06:02